



## HAVOLA BO'LAKLI QO'SHMA GAPLAR BILAN SODDA GAPLAR SINONIMYASINI O'RGATISH.

**Ashirboyeva Chaman**

*72--maktab ona tili adabiyot o'qituvchisi*

Havola bo'lakli qo'shma gaplar ustida ishlashni davom ettiramiz. Havola bo'lakli qo'shma gaplar sodda gaplar bilan sinonimlik hosil qilishi mumkin. Akademik litseyning III bosqich talabalari uchun ajratilgan bir soatlik dars aynan shu mavzuga bag'ishlanadi.

Mavzuni tushuntirishni qoidalardan emas, yana topshiriqlarni bajarishdan boshlaymiz. Agar yangi mavzu bayoniga birdaniga o'tadigan bo'lsak, ayrim o'quvchilar, ya'ni o'zlashtirish darajasi pastroq o'quvchilar yoki sekin o'zlashtiradigan o'quvchilar mavzuni yuzaki tushunishlari yo bo'lmasa umuman tushunmay qolishlari mumkin.

1-topshiriq. Daftaringiz varag'ining o'rtasidan chiziq tortib, ikkiga bo'ling. Chap tomonidagi havola bo'lakli qo'shma gaplarni o'ng tomonga sodda gaplarga aylantirib yozing. Qo'shma gapni sodda gapga aylantirish uchun qanday o'zgarishlar qilganingizni ayting.<sup>43</sup>

1. Shuni unutmangki, vatanning istiqboli sizning qo'lingizda.
2. Shunday kunlar keladiki, yurtimiz dunyoning eng rivojlangan go'shasiga aylanadi.
3. Kimki birovga choh qazisa, o'shaning o'zi yiqiladi.
4. Kim mehnat qilsa, o'sha rohat ko'radi.

Topshiriqni bajarishda o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish go'yasidan voz kechamiz, chunki darslardagi bir xillik o'quvchilarni tezda zeriktirib qo'yadi. O'quvchilardagi tezkorlik, chaqqonlik, o'zini bir ishga undashdagi layoqatini, o'z shaxsiy fikr va dunyoqarashini oshirish uchun o'qituvchi tomonidan birinchi kelgan 6ta o'quvchining ishini ko'rib chiqishi aytiladi. Natijada o'quvchilar topshiriqni tez va aniq bajarishga harakat qiladi.

O'tgan mavzuning 4- topshirig'ida qolip asosida qo'shma gap tuzgandan so'ng, ergash gapni ko'rsatish olmoshi o'rniga qo'yib, sodda gap tuzish kerak edi. Demak, bu topshiriqni bajarish o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirmaydi.

Topshiriq quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Qo'shma gapning bosh gap qismi topib olinadi;
- Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi aniqlanadi;
- Ergash gapni shundaygina bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshining o'rniga olib borib qo'yadi.

<sup>43</sup> Almatov T.va boshqalar. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Toshkent, 2013.



• Ergash gapni bosh gap bog'lovchi vosita aniqlanib, sodda gapga aylantirish jarayonida tashlab yuboriladi.

Masalan:

- Shuni unutmangki, vatanning istiqboli sizning qo'lingizda.
- Vatanning istiqboli sizning qo'lingizda ekanligini unutmang.

Havola bo'lakli qo'shma gaplarni doimo sodda gaplarga aylantirish mumkin, chunki qo'shma gapning ergash gap qismi bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshining umumiy mavhum ma'nosini konkretlashtirish, izohlash vazifasini bajaradi. Shuning uchun ergash gapni bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi o'rniga qo'yish mumkin bo'ladi. Natijada, ergash gap bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi bajargan gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Qo'shma gap esa sodda gapga aylanadi.<sup>44</sup>

Masalan, *Kim mehnatdan qochsa, unga tole kulib boqadi.*\_\_\_\_\_

*Mehnatdan qochmaganga tole kulib boqadi.*

*Shunga aminmanki, ertamiz bugungidan porloqroq bo'lishiga aminman.*\_\_\_\_\_ *Ertamiz bugungidan porloqroq bo'lishiga aminman.*

Havola bo'lakli qo'shma gaplarni sodda gapga aylantirishda ularni yonma - yon yozish ularning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rish imkonini beradi. O'quvchilar har ikkala gapni bir-biriga muqoyasa qilib solishtirib boradi:

- |   |   |
|---|---|
| 1. Shuni unutmangki, vatanning istiqboli sizning qo'lingizda.                       | 1. Vatanning istiqboli sizning qo'lingizda ekanligini unutmang.                         |
| 2. Shunday kunlar keladiki, yurtimiz dunyoning eng rivojlangan go'shasiga aylanadi. | 2. Yurtimiz dunyoning eng rivojlangan go'shasiga aylanadigan kunlar kelishini unutmang. |
| 3. Kim birovga choh qazisa, o'shaning o'zi yiqiladi.                                | 3. Birovga choh qaziganning o'zi yiqiladi.  |
| 4. Kim mehnat qilsa, o'sha rohat ko'radi.   | 4. Mehnat qilgan rohat ko'radi.   |

Havola bo'lakli qo'shma gaplar sodda gapga aylantirib bo'lingach, o'qituvchi o'quvchilardan havola bo'lakli qo'shma gaplarni sodda gaplarga aylantirganda qanday o'zgarishlar ro'y berganligini so'raydi. O'quvchilar esa ikki gapni solishtirib, yuz bergan o'zgarishlarni aytadi: ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositaning tushib, ergash gapning tushum kelishigini olgan to'ldiruvchiga aylanganligi ko'rsatishadi. So'ngida o'qituvchi o'quvchilarning fikrlariga xulosa yasaydi.<sup>45</sup>

## 2- topshiriq.


<sup>44</sup> Almamatov T.va boshqalar. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Toshkent, 2013.

<sup>45</sup> Tursunov I., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., O'zbekiston, 1992





Quyida berilgan qo'shma gap qoliplari asosida to'rtta qo'shma gap tuzing. Qo'shma gaplarni sodda gaplarga aylantiring. Qo'shma gap bilan sodda gap o'rtasida qanday mazmuniy farq borligini ayting.



2-topshiriqni quyidagi tartibda amalga oshirish mumkin:

- Ko'rsatilgan ikki qolip asosida to'rtta qo'shma gap tuziladi;
- Tuzilgan qo'shma gaplar sodda gapga aylantiriladi;
- Qo'shma gap va sodda gaplar bir-biriga solishtiriladi;
- Ularning o'rtasida qanday mazmuniy farq borligi aytiladi;

O'qituvchi topshiriqni mavzuni qiyin o'zlashtiruvchi yoki umuman o'zlashtirmagan o'quvchilar bilan doskada barcha o'quvchilar kuzatuv ostida amalga oshiradi.

O'quvchilar o'zlari mustaqil gaplar tuzishgach, ularni sodda gaplarga aylantirishadi. Tushunmagan va bilmagan savollariga o'qituvchidan javob olib, iloji boricha o'quvchilar topshiriqni o'zlari bajarishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarning xato va kamchiliklarini erinmay kuzatib, yumshoqlik bilan ularni topshiriqni to'g'ri bajarishga o'rgatishi lozim. Topshiriqni bu xilda o'quvchilardan talab qilishning bir necha afvzallik tomonlari bor:

- O'qituvchi o'quvchining darsning yoki mavzuning qayeriga tushunmaganligini bilib, uni to'g'ri yo'lga yo'naltira oladi;
- O'quvchi doskaga chiqqach, o'z ma'sulyatini yanada yaxshi his qiladi;
- O'quvchini o'z fikrlarini mustaqil va erkin ifoda etishga undaydi;
- Boshqa o'quvchilar o'z sinfdoshlarining fikrini tinglashni va uni tahlil qilishni o'rganadi;
- Darsda o'zlashtirishi qiyin o'quvchilar ham e'tibordan chetda qolmaydi;

Biz oldingi topshiriqlarda qo'shma gapni sodda gapga aylantirishni bir necha marotaba ko'rib chiqdik. Hozirgi topshirig'imizni bajarishda bu narsa qiyinchilik tug'dirmaydi. Endi qo'shma gapni sodda gap bilan solishtirib uning mazmuniy farqlari topiladi.

Namuna sifatida shuni misol keltirish mumkin:

a) *Kim o'zini hurmat qilsa, u boshqalarni ham hurmat qila oladi.*



*O'zini hurmat qilolgan boshqalarni ham hurmat qila oladi.*

*b) Shuni aniq bilamanki, haqiqat aslo sinmaydi.*

*Haqiqat also sinmasligini aniq bilaman.*

Har ikkala gapda ham bir xil ma'no ifodalangan. So'zlovchi ikki gapda ham bitta axborot xususida gapiryapti. Faqat shakllarda farq bor.

Ko'rinadiki, bir axborotni ikki xil gap – sodda va qo'shma gap orqali ifodalash mumkin bo'ladi.

Garchi gapning bu ikki turi bir xil mazmun ifodalash jihatidan umumiylikni tashkil etsa ham, lekin ular ma'noni ta'kidlash, uslubiy xoslanish jihatidan farq qiladi. Havola bo'lakli qo'shma gaplar ko'proq kitobiy uslubga xos va sodda gaplardagiga nisbatan ma'no ta'kidlangan bo'lsa, sodda gaplar uslubiy betaraflik xususiyatiga ega bo'ladi.

Fikrimizning isboti sifatida 214-mashqni ko'rib chiqamiz.

214-mashq. Quyidagi sodda gaplardan havola bo'lakli qo'shma gaplar hosil qiling.


1. Mehnatni sevmagan odam bir buzuvlikni qilishga tayyordir.
2. Hasad yurakning zanglanishi, qaysarlik-mag'lubiyat sababchisidir.
3. Odobning yuqori bosqichi go'zal xulqdir.
4. Insonning eng go'zal yordamchisi o'zining aqlidir.
5. Hayotda go'zallik, quvvat va saodatning manbai soddalikdir.
6. Qog'ozga yozilib qolgan yaxshi nom tamom bo'lmaydigan umrdir.
7. Qalbi pok bo'lgan kishining ishlari ham pok, toza bo'ladi.

(“Durdonalar xazinasini” dan)

Yuqorida keltirilgan gaplar bir kesimlik belgisiga ega bo'lib, ular sodda gap ko'rinishidadir. Ularni havola bo'lakli qo'shma gaplarga aylantirish uchun uning tarkibida ko'rsatish olmoshi bo'lishi va bu ko'rsatish olmoshi ergash gapning mavjud bo'lishiga ishora (havola) qilishi lozim.

Masalan, 1.Shuni unutmash kerakki, mehnatni sevmagan odam bir buzuvlikni qilishga tayyordir.

Bu gap quyidagi qolipda bo'ladi:



Sodda gapni havola bo'lakli qo'shma gapga aylantirganda ko'rdikki, ko'rsatish olmoshi bosh gap tarkibida kelib, ergash gapni taqazo etmoqda, ergash gapning kelishiga ishora qilmoqda.





### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

7. Almamatov T.va boshqalar. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Toshkent, 2013.
8. Sayfullayeva R.R.,Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M.,Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T., “Fan va texnologiya”, 2009. – 416b.
9. Mahmudov N., A.Nurmonov, A.SH.Sobirov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Toshkent-2014.
10. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T.: “Sharq”, 2010.-304 b.
11. Tursunov I., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., O'zbekiston, 1992.
12. Til va adabiyot ta'limi jurnali 2005/3